



NAVRO'ZING – YANGI KUN, YANGI DAVRONING  
MUBORAK, JONAJON O'ZBEKISTONIM!



# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 11 (67280)  
2020-yil 16-mart

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

## SEN BAHORNI SOG'INMADINGMI?



Abdulla ORIPOV,  
O'zbekiston Qahramoni,  
Xalq shoiri

Uyg'onguvchi bog'larni kezdim,  
Topay dedim qirdan izingni.  
Yonog'ingdan rang olgan dedim,  
Lolazorga burdim yuzimni,  
Uchratmadim, ammo o'zingni,  
– Sen bahorni sog'inmadingmi?

Uzoqlarda zalvorli tog'lar,  
Xayolimni keldilar bosib.  
Kechdi qancha intizor chog'lar,  
Vasling menga bo'lmadi nasib,  
Sensiz men ham, bahor ham g'arib,  
– Sen bahorni sog'inmadingmi?

O'ngirlarda sakraydi ohu,  
Na'matakda sa'va mittijon.  
Qorliklardan sipqarilgan suv,  
Daralarda uradi javlon,  
Nigohimdan faqat sen pinhon,  
– Sen bahorni sog'inmadingmi?

Mana, bugun Navro'zi olam,  
Do'stlaringa gullar tutarman.  
Qaylardsan, sevgili erkam...  
Qo'limda gul, seni kutarman,  
Umrim bo'yi chorlab o'tarman,  
– Sen bahorni sog'inmadingmi?







# SIZ BILAN SHE'RLARNI RUBOBI YANGRAR, SIZ BILAN GO'ZALDIR, ZAMONA QIZLAR...

**Kuni kecha yurtimizdagi ko'pchilik oilalar 8-mart kuni arafasida qo'shaloq bayramni nishonlashdi. Bilimli, iqtidorli, izlanuvchan qizlarimizning bir guruhi Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lishdi. Mukofotlanganlar orasida maktab o'quvchilarining borligi yanada quvonarlidir. Quyida ularning ayrimlari bilan tanishasiz.**

## **Olimaxon TOJIBOYEVA, Namangan viloyati, Koson tumanidagi 9-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatining 9-sinf o'quvchisi:**

– Bugun mening hayajonim o'zgacha. Sababi, 14 yoshimda yuksak mukofotga – Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga san'at yo'nalishi bo'yicha munosib deb topildim. Kosonsoyliklar meni, dutorchi qiz, deb atashadi, tengdosh dugonalarim havas bilan qarashadi. 7 yoshimdan tumanimizdagi 3-Bolalar musiqa va san'at maktabiga qatnab, dutor chalish sirlarini, an'anaviy xonandalik yo'nalishini o'rgandim. Tinimsiz qilgan mashqlarim o'z samarasini berdi...

Bu yuksak mukofotga sazovor bo'lganim haqidagi xushxabarni eshitishim ham ajoyib tarzda bo'ldi. Men bilan bog'lanish uchun hujjatlarimga onajonim va buvijonimning telefon raqamlarini yozib qoldirgandik. Xushxabarni yetkazish uchun onamning qo'l telefoniga qo'ng'iroq qilishgan, ammo onam dars o'tayotganliklari sababli telefonlari ovozini pasaytirib qo'yganlar. Shunda qo'shnimiznikiga sumalak tayyorlash uchun chiqqan buvijonim bilan telefon orqali bog'lanib, yangilikni yetkazishibdi. Buvijonim xushxabarni eshitibdilar-u, quloqlariga ishonmay, qayta-qayta rostdanmi, deb so'rabdilar. Sumalakka yig'ilganlarning barchasi buvijonimni tabriklashibdi. Kexsa onaxonlar mukofotlangan qizlarimiz safi kengayaversin, deya duo qilishibdi. Bu paytda men Namangan shahrida yangi ochilgan Bolalar musiqa va san'at maktabining ochilish marosimida dutor chalib, qo'shiq kuylayotgan edim. Inson o'z oldiga biror maqsad qo'yishda, albatta, kattalar bilan maslahatlashsa yaxshi bo'ladi, deb o'ylayman. Ularning o'g'itiga amal qilib, kam bo'layotganim yo'q. Shu kungacha erishgan yutuqlarim ortida ustozlarim, oila a'zolarimning mehnati, ko'magi, mehri hamisha sezilib turadi. Yurtboshimiz qo'llaridan mukofotni qabul qilib olayotganimda, qalbimni chulg'ab olgan hissiyotni so'z orqali ifodalab berolmayman. Ayni kunlarda, 25 – 29-mart kunlari Moskva shahrida bo'lib o'tadigan xalqaro tanlovga jiddiy tayyorgarlikni boshlab yubordim. Nasib bo'lsa, bu tanlovda ham g'oliblikni qo'lga kiritib, ustozlarim, yaqinlarim ishonchini oqlayman. Zero, Prezidentimiz aytganlaridek, biz – O'zbekiston yoshlari fidoyi va intiluvchan yigit-qizlar bo'lishimiz kerak!

Millionlab tengdoshlari havas ko'zi bilan boqayotgan bu baxtli qizlar orasida Suxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 4-Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan (ayni damda, al-Hakim at-Termiziy nomidagi 1-sonli viloyat yosh fizik-matematiklar) maktab-internatining 8-sinf o'quvchisi **Ruxshona ABDURAZZOQOVA** ham bor. Uning adabiyot yo'nalishidagi yutuqlari bilan qiziqqanimizda, Ruxshona to'lib-toshib bizga quyidagilarni gapirib berdi:

– Bu yutuqni qo'lga kiritishimda, avvalo, ustozlarimning mehnati beqiyos. Ayniqsa, ijod qilishimda yordamini ayamagan ustozim Sayyora opa Jumaniyozovadan minnatdorman. 2018-yilda «Yosh kitobxon» respublika tanlovida sertifikat bilan taqdirlandim. Shu yili «Yilning eng iste'dodli yosh shoiri» tanlovining

viloyat bosqichida 1-o'rinni egalladim. Ijod qilish jon-u dilim. Biror voqeadan qattiq ta'sirlansam, qo'limga qalam olib, qog'oz qoralayman va uni ustozlarimga ko'rsataman. Ijod namunam ularga ma'qul bo'lgach, tahriyatga yo'l olaman... Respublika va viloyat nashrlarida she'r va maqolalarim tez-tez chop etiladi. Mana shu tanlov mening ijodimni yanada charxladi, o'zimga bo'lgan ishonchni ortirdi.



Maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga, sportning eng mashaqqatli turi – shaxmatga qiziqadigan Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi 5-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi **Sitora SAPAROVA** ham ushbu mukofot sohibasi bo'lish baxtiga muyassar bo'ldi. Keling, endi navbatni unga bersak:

– Yoshligimdan sportning shaxmat turiga qiziqishim baland edi. Shaxmat bo'yicha 2015-yildan buyon ko'plab muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib kelmoqdaman.

Mazkur yil men uchun juda xayri boshlandi. Ushbu nufuzli mukofotni qo'lga kiritishim birgina menimas, balki shu ko'rsatkichga erishishimda mehnati singan ustozlarimni ham to'lqinlantirib yubordi. Sportning yoshlar kamolotida o'rni nechog'li muhim ekanligini tengdoshlarimga anglatish, sportni o'quvchilarga targ'ib qilish maqsadida turli tadbirlar uyushtirmoqdaman. Zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha ham internet veb-sahifasida yoshlar ishtirokida sportga oid mavzularda onlayn muloqotlar o'tkazaman. Agar mening izlanishlarim, intilishlarim tufayli birorta o'quvchi yutuqqa erisha, boshim ko'kka yetgan bo'lardi. Bu mukofot yuqorida aytganimdek, faqat menikimas, balki ustozlarimniki hamdir. Aslida, yurtimizdagi har bir qiz mana shu mukofotga loyiq, deb o'ylayman.



**Bu qizlarning erishgan yuksak muvaffaqiyatlarini ko'rib, to'g'risi, ularga bizning ham havasimiz keldi. Yurtimizning har bir go'shasida mana shunday iqtidor va nazokat bobida o'z so'zini ayta oladigan qizlar ko'pligiga aminmiz. Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimizki, siz ham intiling, o'qishda, ijodda, sport mashg'ulotlarida faol bo'ling. Ana shunda kelgusi yili «Zulfiyachi qiz»lar orasidan siz ham o'rin olishingiz, shubhasiz.**

**N. NAZAROVA, O. TURSUNBOYEVA suhbatlashdi**





## ONALAR ULUG'LANDI

**Maktabimizda onalarni ulug'lashga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.**

Unda o'quvchilar ijrosidagi Bahorni, Navro'zni ulug'lovchi kuy-qo'shiqlar, raqslar onajonlarimizga zavq-shavq bag'ishladi. Shuningdek, 8-11-sinf o'quvchi-qizlari tanishtiruv, pazandachilik, erkin mavzu kabi shartlar bo'yicha o'zaro bellashdilar. 11-«B» sinf o'quvchisi Shoiraxon Muhammadjonova, 10-«A» sinf o'quvchisi Munisaxon Muqumjonova va 8-«A» sinf o'quvchisi Fayzixon Sotvoldiyeva barcha shartlar bo'yicha g'olib bo'lishdi.

Ona ulug' zot ekanligi tadbir davomida yana bir bor ta'kidlandi. Shu kuni har bir ishtirokchi o'z onasiga «Sizni yaxshi ko'raman», deb tez-tez aytishga kelishib olishdi.

*Dilshodbek AHMEDOV,  
Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi  
16-umumta'lim maktabining  
Yoshlar ittifoqi yetakchisi*



Ta'lim maskanimizda

## «OQILA QIZLAR»

**tanlovi bo'lib o'tdi. Unda 9-11-sinf o'quvchi-qizlari 3 ta shart bo'yicha bellashdilar.**

Birinchi shartda o'quvchining ravon nazari, notiqiligiga e'tibor berilgan bo'lsa, pazandachilik shartida qizlar bahor taomlaridan ko'ksomsa, ko'kchucharani belgilangan muddatda tayyorlashga harakat qilishdi. Erkin mavzuda she'r aytish, raqsga tushish, monolog o'qish kabi ijodiy chiqishlar qilishdi. Barcha shartlarni muvaffaqiyatli bajargan ikki nafar 10-sinf o'quvchilari g'olib deb topildi. Ishtirokchilarga maktab ma'muriyati tomonidan Faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.

*Muhtaram HASANOVA,  
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi  
68-umumta'lim maktabining  
10-sinf o'quvchisi*

**Bilim maskanimizda beshta muhim tashabbus asosida musiqa, rassomlik, sport to'garaklari muntazam ishlab turibdi. Darsdan keyin o'quvchilar barcha zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan sport zalida turli mashg'ulotlar bilan band bo'lishadi. Qizlar chevarlik, pazandachilik sirlarini o'rganadilar. Kutubxonamiz turli adabiyotlarga boy. Biz bo'sh vaqtimizni mana shu nurxonada kitob mutolaa qilish bilan o'tkazamiz.**

## MAKTABIMIZ UZRA YANGRAGAN QO'SHIQ

Kitob bilan do'st tutinganimiz bois, sinfimizda Osiyo Toshpo'latova, Feruza Xojiyeva singari ijodkor o'quvchilar ko'payib qoldi. Gulsanam Bo'riyeva esa mo'yqalam bilan turli manzaralar tasvirlarini qo'yillatib chizadi.

Bir so'z bilan aytganda, sinfimizdagi iste'dodli o'quvchilar safi borgan sayin kengaymoqda. Maktabimiz direktori Dilrabo Achilova rahbarligida ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, «Kitoblar yarmarkasi»ning tez-tez tashkil etilishi biz kitobxonlarni behad mamnun qiladi. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Dilafruz opa O'roqova yaqinda «Besh tashabbus»ga bag'ishlab she'r

yozdi, musiqa ustozimiz Nasim aka Karimov esa ushbu she'rga kuy bastaladi. Maktabimizning ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Gulsina opa Hayitova boshchiligida har bir o'quvchi ushbu she'ni yod oldi va she'r qo'shiqqa aylanib, maktabimiz uzra yangradi. Bilim olishga bo'lgan qiziqishimizni oshirish, iste'dodimizni yuzuga chiqarish uchun beminnat xizmat qilayotgan ustozlarimiz qarshisida hamisha ta'zimdamiz.

*Fayozbek XUSHNAZAROV,  
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi  
38-umumta'lim maktabining 5-«V» sinf  
o'quvchisi*

## MEHRNING RASMI BORMI?

**Maktabimiz kutubxonasi badiiy adabiyotlarga boy. Lekin u yerda o'tirib kitob o'qishga joy yo'q. Shunda ham maktabimiz kutubxonachisi Sh.O'sarov har bir o'quvchini kitob o'qishga qiziqtirib, mutolaaga undaydi. Kitobxonlikning foydali jihatlari haqida gapirib beradi.**

Bir kuni kutubxonaga kirganimda, ustozimiz menga o'quvchilar o'rtasida «Mehrnin rasmini ko'rganmisiz?» mavzusida maqola yoki insholar tanlovini e'lon qilganliklarini aytib qoldilar. Shunda men ham tanlovda ishtirok etishga qaror qildim va qo'limga qalam oldim.

«Mehr o'zi nima? Uning rasmini chizish mumkinmi?» degan savollar atrofida fikr yuritib, nihoyat, shunday xulosaga keldim:

Mehrni men ilk bora o'z yaqinlarim – onajonim va otajonimda ko'rganman. Ota-onam, yaqinlarim, maktabim, ustozlarim, oila a'zolarim, yaqin o'rtoqlarim, qarindoshlarim, hattoki, onam tandirda yopgan issiqqina nonda ham mehrynin rasmini ko'raman. Misol uchun: onajonlarimiz bizni bu yorug' dunyoga keltiradi, oq yuvib, oq

taraydi. Tunlari uxlamay, bizni voyaga yetkazadi, o'qishimiz uchun sharf-sharoitlar yaratib beradi. Shunday ekan, onajonlarimiz ko'zlarida mehrynin rasmini ko'rishimiz mumkin.

Mehrnin tasvirini hech kim, hattoki, buyuk rassomlar ham chiza olmaydi. Chunki uning rasmi yo'q. To'g'ri, yo'q emas, bor! Mehri qalban his qilish kerak. Biz ota-onamiz bag'rida, ya'ni mehrynin o'chog'ida ulg'aymoqdamiz. Mehr bozorda sotilmaydi, qo'lda to'qilmaydi, uning arzon yoki qimmatli bo'lmaydi. Uning manzili yuraklarning to'rida.



*Bahora TOSHMAMATOVA,  
Samarqand viloyati,  
Kattaqo'rg'on tumanidagi  
28-umumta'lim maktabi o'quvchisi*




# BOLALAR ADABIYOTI ZARGARLARINING OLTIN FONDI

**Oftob yaxshimi,  
Odob yaxshimi?  
Oftob berar nur,  
Odob-chi – huzur.  
Lolalar uchun  
Oftob yaxshidir,  
Bolalar uchun  
Odob yaxshidir...**

yo'zuvchisi bola qalbi, nozik-ta'ab egasi, go'dak tabiati va o'y-kechinmalarining bilimdoni, mehribon va bolajon, kamtarin va samimiy hamda dono bo'lishi lozim. Sevimli yo'zuvchimiz Xudoyberdi akaga ustoz Said Ahmad aka aytganidek, «bolalar uchun yo'zayotgan bo'lsangiz, bola bo'lib kitobxonni his etib yozmasangiz, sizni hech kim o'qimaydi...»

Yuqoridagi satrlar muallifi Po'lat Mo'min ham butun umrini bolalar orasida va

Darhaqiqat, bolalar uchun ijod qilish, bu sohada muvaffaqiyat qozonish uchun qobiliyatning o'zгина kifoya qilmaydi. Buning uchun bolalar yo'zuvchisi bo'lib tug'ilish kerak. Bolalar



## O'QUVCHILARNING INSHOSINI O'QIB...

**Maktabimizda ko'plab fan to'garaklari samarali faoliyat olib bormoqda. Ana shu to'garaklar qatorida boshlang'ich sinflar kesimida tashkil etilgan «Ifodali o'qish» to'garagining faoliyatidan o'quvchilarimiz ham, ularning ota-onalari ham juda mamnun.**



Navbatdagi to'garak mashg'ulotimida shoir, dramaturg, taniqli diplomat Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishdik. Avloniyning insondagi yaxshi va yomon xulqlar haqidagi fikrlarini qunt bilan o'rgandik. O'quvchilarim eshitganlari, o'qiganlari yuzasidan chiqargan xulosalarini «Mening orzum» mavzusidagi ijodiy insholarida batafsil bayon qildilar. Inshodagi fikrlarni o'qir ekanman, o'quvchilarimning kelajakda tanlaydigan yo'nalishlarida ham, hayotlarida ham o'zlariga munosib fazilatlarini

singdirayotganliklariga guvoh bo'ldim.

Xulosa o'rnida aytmoqchimanki, o'quvchilarimiz yoshligidanoq qanday kitoblarni o'qish kerakligini bilib olsalar, o'z vaqtlarini samarali va foydali tarzda o'tkazadilar. Kitobni eng yaqin do'st deb biladilar. Zero, kitob mutolaasiga oshno qalblarda hech qachon yomonlik kurtaklari unib chiqmaydi.

**Diloromxon IMINJONOVA,  
Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi  
3-umumta'lim maktabining boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi**

bolalarga asarlar yozish bilan o'tkazgan shoir edi. Unga bolalar va maktab hayoti, ularning ajoyib, jo'shqin va keng dunyosi juda tanish va qadrlidir. Bolalarning o'y-fikrlari, orzu umidlari, his-hayajonlari shoir asarlarida badiiy ifodasini topgan. Shu bois, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi jamoasi xayrli bir ishga qo'l urishdi. Ular «O'zbek bolalar adabiyoti oltin fondidan» seriyasi ostida ana shunday bolalar adabiyoti zargariga aylangan ijodkorlarning asarlarini bosmadan chiqarishdi.

Kuni kecha Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida ana shu ilk nashrdan o'rin olgan

Po'lat Mo'minning «Qovoqvoy va Chanoqvoy», Nosir Fozilovning «Qahr va Mehr», Anvar Obidjonning «Quvnoq, quvnoq bolalar», Dilshod Rajabning «Yo'lim Quyosh tomondir» kitoblari taqdimoti bo'lib o'tdi. Unda yo'zuvchilar, shoirlar, bolalar nashrlari xodimlari va maktab o'quvchilari, adabiyot ixlosmandlari ishtirok etishdi.

– Bunday seriya ostida chiqariladigan kitoblarni tizimli chop etish yo'lga qo'yildi, – dedi Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi direktori Davron Ulug'murodov. «Oltin fondidan» joy olgan kitoblarni o'quvchining doimiy hamrohiga aylansa, ajabmas...  
**O'z muxbirimiz**

Abdulazizov, Sarvinov G'afforova ijrosidagi Ona haqidagi she'r, qo'shiq va sahna ko'rinishlari, jozibali raqslar barchaga bayram kayfiyatini ulashdi.

– Bu maktabda yangi kitoblarni taqdimotini o'tkazish, o'quvchilarda mutolaa madaniyatini shakllantirish doimiy an'angaga aylanganidan xursand bo'ldim, – deydi Gulchehra Shahobiddin qizi. – Ayniqsa, ijod namunalari o'quvchilar talqinida eshitish menga maroqli bo'ldi.

Tadbir so'ngida mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism serjanti Hilola Qodirova faol ustoz va o'quvchilarga Faxriy yorliqlar topshirib, hamkorlik uchun minnatdorlik bildirdi.

**Mahmuda VALIYEVA**

## ONA – VATAN QUYOSHI

Bu abadiy mavzuda yozilgan har bir she'r kitobxon uchun nondek aziz, suyuqli. Eshityapsizmi, sahnada she'r o'qilyapti:

**Sen mening akamga o'xshaysan buncha,  
To'kilib ketmagin, jonim qizg'aldoq.**

Ikkinchi o'quvchi ham hayajon bilan Vatanga mehrini bayon etmoqda:

**Vatan so'zin tanqisligini,  
O'zga yurtda yotdan so'rang.  
Uni sevmog' iymondandir,  
Degan asl zotdan so'rang.**

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabining 2-«B» sinf o'quvchilari ustozlari Iroda G'ulomova boshchiligidagi «Quyoshim onam» nomli tadbir o'tkazishdi. Tadbirni Yo'zuvchilar uyushmasi a'zosi Gulchehra Shahobiddin qizining she'rlaridan yod o'qishdan boshladilar. Unda ishtirok etgan onalar, ustozlar-u o'quvchilar shoiraning «Onajon, kechir» kitobining taqdimotidan bir olam taassurot oldilar. O'quvchilar Mohira Zokirova, Mahbuba Qayumova, Shohjahon Nabixo'jayev, Muxlisa Tursunova, Abduaziz





Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

Lesson 1!



**I congratulate all pupils, teachers, and all our nation on the bright and gracious holiday of Navruz! Navruz is a chance to celebrate nature, to welcome a new year, and to enjoy flavorful food with friends, neighbors, and family.**

In Navruz, with the awakening of nature, people look with hope in the future. The essence of this ancient and young holiday in our days lies in the ideas of good, creativity, kindness, peace and friendship. So let me wish all people these imperishable common to all mankind values.

I sincerely wish you fulfillment of desires, happiness and happy days, good health, wisdom, prosperity and mercy. Happy Navruz dears!

**Sarvinoz MAZOKIROVA,**  
the teacher of school № 42,  
Besharik district,  
Fergana region



## WHAT IS YOUR HOBBY?

Hello, my dear friends! Hobby is something a person likes doing. Different people have different hobbies. Some people are interested in collecting things like stamps, badges, books, others are fond of sports as their hobbies.

Many people say that reading or travelling are their hobbies. It is nice to have a hobby. Because hobby teaches people to plan their time. Some hobbies lead us to make useful things, to develop

their body and mind. Many

children collect stamps. They keep the stamps in the stamp albums, you can see famous people, famous things or places in the stamps.

My favorite hobbies are to listen to music and to draw pictures. I like drawing pictures because it is interesting and it doesn't take a lot of time. I like listening pop music, I like collecting Uzbek singers' albums and pictures. I also like cooking meals and biscuits. Everyday I help my mother in the kitchen. At weekends with my friends we cook cakes. What about You?! What is your hobby?



**Raykhona KHALIMOVA,**  
the pupil of school № 43, in Gijduvan district, Bukhara region

## YASHIL VATANIM

– Tabiatni se-vish, uni asrash, chiroyiga chiroy qo'shish, yon-at-rofni ko'kalam-zorlashtirish, bog'-rog'larga aylantirish ham Ona-yerni se-



vish, ardoqlash demakdir, – deydi poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 157-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchilari Yusuf Rizayev va Davlatjon Sodiqjonov. – Shu bois «Yashil Vatanim» shiori ostida o'tkazilgan aksiyada ustozlarimiz ko'magida maktabimiz yer maydonlariga 60 tup mevali daraxtni ekish ishlarida faol qatnashdik.

O'z muxbirimiz

## YUNONA MUHOFAZAGA MUHTOJ

**Jannatmakon O'zbekistonimiz o'simliklarga boy o'lka. Ular orasida nomi ko'pchiligimizga hali noma'lum bo'lganlari ham talaygina. Shunday o'simliklardan biri «Antiq yunona» deb ataladi. Mazkur o'simlik «O'zbekiston Qizil kitobi»dan joy olgani uchun u haqidagi ma'lumotlarni sizga ham ilindik. Zero, tabiatning bir bo'lagi bo'lgan o'simliklarni asrab-avaylashga o'z hissamizni qo'shsak, noyob o'simliklarni yo'qolib ketishidan saqlab qolgan bo'lar edik.**



Antiq yunona yurtimizning faqat Samarqand viloyatida o'sadi. U gulsafsardoshlar oilasiga mansub manzarali o't sanaladi. Poyasining bo'yi 55 santimetr gacha yetadi, bargi och yashil, guli hidsiz, gulqo'rg'oni naychasimon bo'ladi.

Bu ajoyib o'simlik aprel va may oylarida gullab, urug' hosil qiladi. Gullaganda o'ziga xos manzara beradi. Antiq yunona urug'i pishib yetilgandan so'ng terib olinib, kuzda 2-3 santimetr chuqurlikka ekilsa, kelgusi yili bahorda 30-35 foizi unib chiqadi.

Birinchi yili o'sish davrida bitta naychasimon haqiqiy barg hosil qiladi. Ikkinchi va uchinchi yillari maysa yuzaga kelib, har bir tup o'simlikda 2-3 ta barg paydo bo'ladi. Ular iyun oyining oxirida quriydi. O'sish davrining 4-5-yillarida barglari soni 7-10 tagacha yetadi. Mart oyining o'rtasida novdasida 5-10 ta g'uncha hosil bo'ladi. Ilk g'unchalari 20-25 kunda, keyingilari har besh-olti kunda ochiladi.

Antiq yunonani asalarilar changlatadi. To'pgulli yelpig'ichsimon gullari erta tongda va kechqurun ochiladi. Har bir tupi bir necha dona sifatli urug' beradi. Bu kamyob o'simlikni muhofaza qilishning eng samarali yo'llaridan biri uni urug'idan ko'paytirishdir.

Uning nafis gullari, o'ziga xos barglari va novdasi kishiga estetik zavq baxsh etadi. Antiq yunona manzarali o'simlik sifatida gulzorlarimizdan keng o'rin oladi, degan umiddamiz.

**Shahnoza QO'ZIBOYEVA,**  
Farg'ona viloyati, Yozyovon tumanidagi  
16-umumta'lim maktabining biologiya fani o'qituvchisi



**Sevimli fasli bahorning o'lkamizga kirib kelganidan ilhomlangan Ominaxon o'z tuyg'ularini oqqa ko'chiribdi. Maktabida tashkil etilgan «Yosh adabiyotshunoslar» to'garagida ustози Feruza opa Ismoilovadan olayotgan saboqlari esa uning she'riyatga bo'lgan qiziqishini orttirmoqda.**



## TABIATI MAFTUNKOR

Seni kutdim bo'lib intizor,  
Sog'inganim, ey go'zal bahor.  
Yuragimda ajib bir his bor,  
Tabiati maftunkor bahor.

Taraladi bog'lardan ifor,  
Gullaringda muattar is bor.  
Boychechaging silayin bir bor,  
Quchoq'ingga otilay bahor.

Omina KARIMOVA,  
poytaxtimizning Shayxontohur  
tumanidagi 324-umumta'lim  
maktabining 6-«D» sinf o'quvchisi



Nigora  
NABIYEVA

## BUL'BUS NAVOSI

Bog'lar ichra sayrayman,  
Atirgulga qarayman.  
Kuylash mening odatim,  
Zebo gulni saylayman.  
Borliq menga boqadi,  
Boqishi xush yoqadi.  
Qo'shig'imni eshitib,  
Bog'larga gul taqadi.

Farida  
NABIYEVA

## GULGA BEZANDI NAVRO'Z

Eshik qoqmoqda Navro'z,  
Husnini aylab ko'z-ko'z  
Bahor kelib chun arus,  
Bizga aytdi yaxshi so'z.

Dehqon dalaga chopdi,  
Bog'bon niholin ekdi.  
O'quvchi maktab tomon –  
Yugurdi shod-u xandon.

**Qashqadaryo viloyati,  
Dehqonobod tumani**

# KAPALAKLAR BILAN QUUNASHIB...

**Bahor – tabiatning eng ko'rkam, suluv kelinchak fasli. Uni kelishini intiq bo'lib kutishimiz bejiz emas. Navro'z ustoz shoirimiz Abdulla Oripovning tug'ilgan kuni. Biz Navro'z har yili ustozni tug'ilgan kuni bilan olqishlash uchun oshiqib kelishini bilamiz. Balki Abdulla aka Navro'zga peshvoz chiqish uchun shoshilib Navro'z kuni tug'ilgandir?! Bir suhbatimizda u kishi: «Sen bahorni sog'inmadingmi?» nomli she'rini Termizda yozganlari haqida quyidagi hikoyani aytib bergandi:**

**«O'shanda yosh yigitman, tajriba almashish uchun Surxondaryoga yuborishdi. Surxonda har yili bahor ertaroq keladi. Xonasining oynasidan tabiatga suqlanib boqqan go'zal qizga ko'zim tushdi. U tongda, gullagan daraxtlarni xonasidan turib kuzatardi. O'ziyam go'zallikda bahordan qolishmaydigan panjobi qiz edi. «Sen bahorni sog'inmadingmi?» nomli she'rim o'shanda tug'ilgan. Yoshlik bebaho fasl, kishi yillar o'tgan sayin uni sog'inib yashaydi. Qushlar kabi chug'urlashib, kapalaklar bilan quvnashib yurgan damlarimni she'rga solganman», – degandi ustoz shoirimiz.**

**Aziz o'quvchi! Siz ham Abdulla Oripovning 17 yoshli navqiron damlarida yozgan she'rlaridan bahramand bo'ling.**

AXTAMQULI

## KAPALAK VA MEN

Kapalakning uchishin uzoq,  
Kuzatdim ham yurdim ortidan.  
Qarshimizda g'unchalar porloq,  
Miltir shudring chaman sathidan.

Allaqayda kezib tinimsiz,  
Yig'dik rosa zavq atrlarin.  
So'ngra baham ko'rdik ikkimiz,  
Menga tegdi shu satrlarim.

1958-yil

## QUSHCHA

Goh butoqqa, goh gulga qo'nar,  
Tinim bilmas sayroqi qushcha.  
Nechun bahor seni rom etgan,  
Qayda eding, bahor kelguncha?

Kel, yashaylik hamisha birga,  
Bizda bahor, gullar barchasi.  
Bilsang, men ham chaman o'lkamning  
Sho'x va quvnoq, shod o'g'ilchasi.

O'rmonda bir g'amgin Quyon yashar ekan. U baxt nimaligini bilolmay,

unga erishish uchun nima qilish kerakligi haqida juda ko'p o'y-larkan. O'ylay-o'ylay, baxtni topish uchun yo'lga tushibdi. Yo'lda Tipratikkanni uchratibdi va undan:

– Baxt nima ekanligini bilasanmi? Uni qayerdan topsam bo'ladi? – deb so'rabdi. Tipratikan ham bu savolga javob bera olmay, uzoq o'ylanib qolibdi. So'ng u ham baxt nimaligini bilmasligini aytibdi. Keyin Quyunchaga qo'shilib, baxt izlashga ketibdi. Ikkovlon yo'lda keta-turib, Sigirni uchratishibdi. Undan ham baxt nimaligini so'rashibdi. Sigir biroz sukut saqlab turibdi-da, so'ng ko'm-ko'k maysazorga ishora qilib:

– Mana baxt! – debdi.

– Yo'q, bu baxt emas, – debdi Quyuncha.

## BAXT IZLAB

Ertak



– To'g'ri baxt bunaqa bo'lmaydi, uning gapini tasdiqlabdi Tipratikan.

Keyin ular yana yo'lida davom etishibdi. Nihoyat, donishmand bir Ukkin uchratib qolishibdi. Ukkidan ham baxt nimaligini so'rab, anchadan buyon uni topa olmay, sarson bo'lib yurishganini aytishibdi. Ukki ularning savoliga javoban:

– Baxt hech kimni o'z-o'zidan kelib quchmaydi, qush ham baxtsiz bo'lsa ko'kka uchmaydi, – deb javob beribdi. Shunda ular, Quyon va Tipratikan baxtni har kim o'z qo'li, mehnati, harakati bilan yaratishini anglab yetishibdi.

**Gulzoda AHMEDOVA,  
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir  
tumanidag 52-umumta'lim  
maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi**



**SAVODXONLIK BAYRAMI**

Bo-yovut tumanidagi 7-umumta'lim maktabida «Savodxonlik bayrami» bo'lib o'tdi.



Jajji bilimdonlarni dastlab, maktab direktori Bahodir Abduqahhorov qutlab, bu ularning hamjihatlikda o'tkazayotgan ilk bayramlari ekanligini ta'kidladi. Sinf rahbari Habiba Mamatqulova boshchiligida o'quvchilar she'rlar aytib, harflar timsolida sahna ko'rinishlarini namoyish qilishdi. Milliy qo'shiqlar ohangiga monand raqsar tadbirga fayz kiritdi. Bayramga taklif qilingan ota-onalar va o'qituvchilar kichkintoylarni qo'llab turishdi. Tadbir so'ngida eng faol qatnashgan o'quvchilar maktab ma'muriyati tomonidan Faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Sunnatilla USANBOYEV,  
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi  
34-umumta'lim maktabining tasviriy san'at fani o'qituvchisi

**YIG'LOQI CHEMPION QIZ**

Sarlavhani o'qib, chempion ham yig'loqi bo'ladimi, deb ajablanayotgan bo'lsangiz kerak-a?! Ha, bizning jajji chempionimiz bor-yo'g'i 2-sinf o'quvchisi. U Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi 44-umumta'lim maktabida o'qiydi.



Gulzoda Fayzullayeva yosh bo'lishiga qaramay, To'raqo'rg'on tumanidagi Bolalar va o'smirlar sport maktabida sportning badiiy gimnastika turi bo'yicha o'tkazilgan Nanningan ochiq birinchiligi musobaqasida

1-o'rin sohibi, badiiy gimnastika bo'yicha Farg'ona viloyati, Bag'dod tumanida bo'lib o'tgan hokim ochiq kubogi g'olibi bo'ldi. «Nafosat – 2019» viloyat birinchiligida, «Bahor malikalari» nomi ostida o'tkazilgan Karmana tumani hokimi kubogi musobaqasida hamda Navoiy shahar viloyat ochiq birinchiligida munosib ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallashga ulgurdi.

– Gulzoda oilada kenja farzand, – deydi biz bilan suhbatda tumandagi Bolalar va o'smirlar sport maktabining badiiy gimnastika bo'yicha murabbiyi Sevara Maxsudova. – Ko'proq mashq qildirsam, ba'zan yig'lardi. Mana, endi viloyat musobaqalarida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritmoqda. Har bir musobaqada qattiq hayajonlanardi. Hozir esa faqat g'olib bo'lsam, deydi. Sport maktabida badiiy gimnastika bilan shug'ullanuvchi 100 dan ziyod umidli gimnastikachilar bor. Sabina Sobitaliyeva, Sabina To'lqinova, Gulzoda Fayzullayeva, Sayyora Tursunaliyeva shular jumlasidandir.

Darhaqiqat, farzandlarimizni jismonan sog'lom, aqlan yetuk qilib tarbiyalash har bir ota-onaning burchi. Zero, Gulzodaning dadasi qizini sport to'garagiga olib kelganda, uning ana shunday fazilatlar ustun bo'lishini istagan bo'lsa, ajabmas. Natija esa o'z samarasini bera boshlaganiga hammamiz guvohmiz.

Nodira NAZAROVA

Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi  
160-umumta'lim maktabida

**NAVRO'Z BAYRAMIDA  
BESHTA TASHABBUS**

deb nomlangan festival o'tkazildi.

Yaqinda to'liq ta'mirlanib, o'zgacha qiyofa kasb etgan ta'lim maskani binosi festival kunlari yanada ko'rkamlashdi. Asosiy bino foyesini bolalar o'z qo'llari bilan yog'och va metallardan yasagan samolyot, yuk mashinalari, robot kabi buyumlar bilan bezatishdi. Fursatdan foydalanib, bo'lajak texniklarni, aviasozlar va hunarmandlarni suhbatga chorladim.

Ko'rgazmaga ko'rk bag'ishlab turgan turli rangdagi matolardan yasalgan qo'g'irchoqlarning ijodkorlari 6-«A» sinf o'quvchilari – Munisa Asqarova, Parizoda Rustamova va Malika Sherzodova shu maktab qoshidagi «Mohir qo'llar» to'garagi a'zolari ekan.



– Biz dugonalarim bilan 1-sinfdan beri ushbu to'garakka qatnashamiz, – deydi Malika. – Chunki har bir o'zbek qizi tikish-bichishni bilishi zarur, – deya qo'shimcha qiladi kulib Munisa.

Ko'rgazmadan joy ajratilgan pishiriqlar bo'limini esa 8-sinf qizlari to'ldirishibdi. Talabchan hakamlar hay'ati a'zolari pazanda qizlar tomonidan tayyorlangan shirinliklarni yuqori baholashdi. Biz ham ulardan tatib ko'rdik, juda mazali ekan.

– Bu hali hammasi emas, biz turli xil taomlarni pishirishni ham bilamiz, – deydi g'urur bilan 8-«V» sinf o'quvchisi Nastya Muxina. – To'g'rimi, qizlar?

Dugonalar bir ovozdan Nastyaning gapini ma'qullashdi. Bu qizlarning uyda buvijon va onajonlariga yaqin yordamchi ekanliklariga shubhamiz yo'q. Lekin, afsuski, bunday mahoratlari uchun olgan a'lo baholari kundaliklariga qo'yilmaydi-da...


Festival doirasida o'quvchilar turli sahna ko'rinishlarini ham tayyorlashgan ekan.

O'quvchilar tomonidan sahnada Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, shuningdek, zamonaviy yozuvchilar asarlari qahramonlari gavalantirildi. 10-«A» sinf o'quvchilari Izzatullo Qodirov va Habiba Jo'rayeva sahna asarlarini mahorat bilan ijro etishdi. 2-sinf o'quvchilari Abdulla Turdialiyev va Ra'no Musurmonovanning chiqishlari ham gulduros qarsaklar bilan olqishlandi. Kim bilsin, balki kelajakda ularni haqiqiy teatr sahnalarida ham ko'rarmiz?!

26 yildan beri ushbu bilim dargohiga rahbarlik qilib kelayotgan maktab direktori Irina Mixaylovna Kazakova so'zga chiqib, shunday dedi:

– Barcha yutuqlarimizning asosiy sababchilari bo'lgan o'qituvchilarni o'z kasbining haqiqiy sehrgarlari, degim keladi. Ularga sharaflari, ayni damda, o'ta mashaqqatli mehnatlarida muvaffaqiyatlar tilayman. O'quvchilarimizning ham kelajakda ustozlari mehnatini oqlab, xalqimiz xizmatiga kamarbasta, komil inson bo'lishlariga tilakdoshman...

Fayzli, ko'rkam maktab binosidan chiqar ekanman, kayfiyatim chog' bo'ldi. Chunki u yerda iqtidorli, aqlli, bilimli, zukko o'quvchilar ko'p ekan! Men bundan g'ururlandim!



Mirzaahmad ALIMOV,  
O'zbekiston jurnalistlari uyushmasi a'zosi



## SUMALAK BAZMI

Chiroy berdi ko'klamga Navro'z,  
Gullar sochdi olamga Navro'z.  
Dildan toshib shodon ohanglar,  
Aylandi zo'r bayramga Navro'z.

Doshqozonda qaynaydi jo'shib,  
Sumalak ham aytmoqda qo'shiq.  
Sumalakdan yalar bolalar,  
Momolarning mehrini qo'shib.

## Naqarot:

Barcha-barcha o'g'il-qiz,  
Bo'lsin-bo'lsin bizga jo'r:  
Navro'z bayram hammamiz –  
Sumalak...sumalak...sumalak... –  
Sumalakxo'r!..

Quyoshli kun, oydin kechalar,  
Gul shoxida bulbul kuy chalar.  
O'zbekona bunday bayramni –  
Orzu qilgan necha-nechalar.

Yurt bezandi bugun sharqona,  
Samarqand-u, Termiz – jonona.  
Jizzax, Xiva, Buxoroda to'y,  
Kuyilar Nukus, Toshkent, Farg'ona.

## Naqarot:

Naqarot: Barcha-barcha o'g'il-qiz,  
Bo'lsin-bo'lsin bizga jo'r:  
Navro'z bayram hammamiz –  
Sumalak...sumalak...sumalak... –  
Sumalakxo'r!..

Allegro  $\text{♩} = 96$

1. Chi-roy ber-di  
ko'k-lam-ga Nav- ro'z, Gul-lar soch-di o-lam-ga Nav- ro'z.  
Dil-dan to-shib sho-don o-hang- lar, Ay-lan-di zo'r bay-ram-ga Nav- ro'z.  
2. Dosh - qo-zon-da qay-nay-di jo' shib, Su-ma-lak ham ayt-moq-da qo'  
shiq. Su-ma-lak-dan ya-lar bo-la- lar, Mo-mo-lar-ning meh-ri-ni' qo'  
shib. Bar-cha, bar-cha o' g'il-qiz, Bo'l sin, bo'l-sin biz-ga jo'r. Nav-ro'z bay-ram  
ham- ma- miz - Su- ma- lak... su- ma- lak... su- ma- lak- xo'r. Su- ma- lak- xo'r!


## «D» HARFLI TOPQIRLIK MASHQLARI

**KROSSVORD** yo'lar bo'yicha: 1. Asaka avto markasi. 2. Gap turi. 3. Liviya, Tunis, Iroq davlatlarining pul birligi. 4. Xona jihozi, mebel. 5. O'zgarlar uchun qon beruvchi. 6. Tog'likdagi o'tishga qulay joy. 7. Temir rudalaridan cho'yan olinadigan maxsus inshoot. 8. Siyohdorning qadimiy atamasi. 9. O'zbek xalq maqomlaridan biri. 10. Rossiya Federatsiyasining Moskva viloyatidagi shahar. 11. Murabboning yuzasida hosil bo'luvchi qumoq-qumoq parda. 12. Ikki torli cholg'u asbobi. 13. O'zbek xalq dostoni. 14. Taniqli hind kino san'atkori Raj Kapurning ilk filmlaridan biri. 15. Surxondaryo viloyatidagi shahar. 16. Osiyo janubidagi davlat poytaxti. 17. Binoning tomni ko'tarib turuvchi qismi. 18. Muayyan bir shoirning radif va qo'fiyalarga rioya etgan holda alifbo sirasi bilan tartib etilgan she'rlarining to'liq to'plami. 19. Filippindagi port shahar. 20. Shveysariyaning sharqiy qismidagi shahar, tog' iqlimli kurort. 21. Doira shaklida tizilgan, saf tortib o'tirgan kishilar. 22. Hosil «ona»si. 23. XIX asrda yashab ijod qilgan buxorolik yozuvchi, rassom, xattot, olim, ma'rifatparvar Ahmad ... 24. O'zbek va tojik xalqlariga mansub urma musiqa asbobi. 25. O'rta asrlarda yashab ijod qilgan italyan shoiri, «llohiy komediya» dostoni muallifi. 26. Fikr, mulohazani tasdiqlovchi narsa, isbot. 27. Shashka o'yinidagi kuchli dona. 28. Turli asboblarning qo'l bilan ushlanadigan qismi. 29. O'lchami kichik deraza. 30. Bangladesh poytaxti. 31. Oliy o'quv yurtida fakultet rahbari. 32. Mo'jaz qozon.

**CHAYNVORD:** 1. Faoliyatdan olingan naf, foyda. 2. Ikki elektrodli lampa. 3. Germaniyadagi port shahar. 4. Go'zallikni his etish, undan estetik zavq olish qobiliyati.

**TOPSHIRIQ:** Quyida ta'riflari bayon etilgan «D» harfi bilan boshlanuvchi taniqli shoirlar taxalluslarini topib, shakl atrofidagi xonalarga yozish bilan topshiriqni hal eting. 1. XIII asr ikkinchi yarmi, XIV asr boshlarida Hindistonda yashab ijod qilgan ulug' shoir. 2. Balxda tavallud topib, Buxoroda yashab o'tgan X asr fors-tojik shoiri. 3. XX asr tojik shoiri, dramaturg. 4. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod qilgan xivalik ma'rifatparvar shoir.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV



**BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: 94-645-90-70**

**Tong yulduzi**  
Muassis:  
O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

**Bosh muharrir**  
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**

Dilshod KENJAYEV,  
Alisher S'ADULLAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruz JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Axtamqul KARIMOV

**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li

**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzilimiz va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,  
30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
e-mail: [tongyulduzi1929@gmail.com](mailto:tongyulduzi1929@gmail.com)  
telegram: [t.me/tongyulduz](https://t.me/tongyulduz)  
Adadi – 5696  
Buyurtma – V 4109

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti – 18:00  
Topshirildi – 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08